



O‘QUVCHI-YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK ISLOHOTLARNING TA’SIRI

Rayimova Nigina Bobo-nazarovna –

Buxoro davlat texnika universiteti “Yengil sanoat muhandisligi va dizayni”

kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ekologik islohotlarning o‘quvchi-yoshlar ekologik madaniyatini shakllantirishga ta’siri, “Yashil makon” umumxalq tashabbusi va “Ekologik ta’lim va tarbiya konsepsiyasi” kabi institutsional va huquqiy chora-tadbirlarning ahamiyati ko‘rsatib beriladi. Tadqiqotda ekologik ongning ta’lim tizimiga integratsiyalash orqali siyosiy qo‘llab-quvvatlash, o‘quv dasturlarini yangilash va amaliy faoliyatlar orqali mustahkamlash zarurligi ta’kidlanib, ekologik muammolarni hal qilishda yoshlarning faol ishtiroki barqaror rivojlanishning strategik ustuvor yo‘nalishi sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: ekologik islohotlar, ekologik madaniyat, ekologik ta’lim, o‘quvchi-yoshlar, barqaror rivojlanish

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida ekologik xavfsizlikni ta’minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish tamoyillarini hayotga tatbiq etish borasida keng qamrovli va izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar nafaqat tabiiy resurslardan oqilona va mas’uliyatli foydalanishga, balki ekologik madaniyat asoslarini shakllantirish, xususan, o‘quvchi-yoshlar ongida ekologik dunyoqarashni yuksaltirishga qaratilgan davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.



Ekologik siyosat sohasida mazmun va mohiyat jihatdan yangilanishlar ro'y berib, 2019-yilda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining vazirlik maqomiga ega bo'lishi, 2021-yilda "Yashil makon" umumxalq ekologik harakatining yo'lga qo'yilishi, shuningdek, "Ekologik ta'lim va tarbiya konsepsiyasi"ning qabul qilinishi bu yo'nalishdagi davlat siyosatining institutsional va huquqiy jihatdan mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi.

Mazkur hujjatlar ekologik muammolarning globallashuvi sharoitida O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'lim va tarbiyani zamonaviy ilmiy asoslarda tashkil etishga, fuqarolarda ekologik mas'uliyat hissini shakllantirishga va ekologik barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan milliy strategiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu islohotlarning mohiyatida ekologik madaniyatni, ayniqsa yoshlar ongida shakllantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Negaki, bugungi ekologik muammolarni faqat texnologik yondashuv bilan emas, balki madaniy-ma'naviy yondashuv orqali bartaraf etish mumkin. Shu boisdan, ekologik islohotlarning ijtimoiy qatlami sifatida o'quvchi-yoshlar doimiy ravishda bu jarayonlarga jalb qilinmoqda.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, O'zbekistondagi ekologik islohotlar va ta'lim jarayonidagi o'zgarishlar o'zaro uyg'un va muvofiqlashtirilgan holda olib borilmoqda. Ta'lim muassasalarida ekologik fanlar kengaytirilmoqda, maktab va kollejlarda uchun "Ekologik madaniyat asoslari" kabi yangi darslik va o'quv dasturlari joriy etilmoqda. Amaliy mashg'ulotlar, "ekologik ekskursiyalar", ekologik loyihalar va forumlar orqali o'quvchilarning ekologik dunyoqarashi faollashtirilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida ta'lim muassasalarini "ekologik ong o'choqlari" sifatida ko'rib, shunday degan edi: "Ekologik madaniyatni bolaligidan boshlab shakllantirish – bu xalqimizning ertangi kuniga qo'yiladigan eng muhim poydevordir." Bu fikr nafaqat siyosiy chaqiriq, balki



ta'lim-tarbiyadagi fundamental metodologik yondashuvni anglatadi. Ekologik islohotlar orqali yaratib berilayotgan qonunchilik va tashkiliy-moddiy asoslar ta'lim tizimi bilan bevosita integratsiyalashmoqda. Jumladan, "Yashil makon" loyihasi doirasida o'quvchi-yoshlar ommaviy daraxt ekish aksiyalariga jalb qilinmoqda, bu esa ularning ekologik javobgarligini amaliy tajriba orqali shakllantirishga xizmat qilmoqda.


O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy, madaniy hayotida talaba yoshlar muhim o'rin egallaydi. Talaba yoshlar ekologik madaniyatini shakllantirish, ularning bugungi kun talablariga javob beradigan darajada, yuqori malakali pedagog professor o'qituvchilar yordamida zamonaviy, dunyoviy bilim olishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan, hayotga tatbiq etilib, dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirofiga sazovor bo'lgan "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning amaliyotdagi ijrosi talaba yoshlarimizning ekologik ta'lim, tarbiyasida, ularda ekologik madaniyatni shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etmoqda [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ekologik madaniyatni oshirishni mamlakatning dolzarb vazifalaridan biri sifatida belgilab, bu masalani faqat ma'muriy yo'l bilan hal etib bo'lmasligini, balki yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkinligini ta'kidlagan. Ekologiya va atrof-muhitni asrash bo'yicha sa'y-harakatlarni kuchaytirish maqsadida "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirishni belgilagan. Bu loyiha orqali aholining ekologik madaniyatini oshirish, tabiatni asrab-avaylashga bo'lgan mas'uliyatni kuchaytirish ko'zda tutilgan. Bu orqali yoshlarni ekologik bilimlar bilan ta'minlash va ularning ekologik madaniyatini oshirish maqsad qilingan.



Ekologik innovatsiyalar va texnologiyalarni joriy etish orqali Orol dengizi halokatining global oqibatlarini bartaraf etish zarurligini ta’kidlagan. Bu borada Birlashgan Millatlar Tashkiloti qoshida tuzilgan maxsus Trast fondi va P4G platformasi doirasida faol hamkorlikni yo‘lga qo‘yish rejalashtirilgan. Prezidentimiz rahnamoligida ekologik auditni o‘tkazish tartibini takomillashtirish, ishlab chiqarish jarayonini ekologik nazorat qilish tizimini yaxshilash zarurligini ta’kidlagan. Bu orqali sanoat korxonalarining ekologik holatini yaxshilash va atrof-muhitga bo‘lgan ta’sirini kamaytirish maqsad qilingan [2].

Talaba yoshlar ekologik madaniyatini shakllantirish jarayonining muhimligi, dolzarbligi va amaliy ahamiyati mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy iqtisodiy islohotlar, jamiyat hayotining barcha jabhalarini modernizatsiyalash masalasi bilan chambarchas bog‘liqligidadir, chunki mamlakatimizda yoshlarning aholi tarkibidagi salmog‘i 64,0% tashkil qiladi.



1-rasm. Talaba-yoshlar ekologik madaniyatiga oid statistik ma’lumotlar



Shu jihatdan olib qarasak, ularning bilim olishlari, tarbiyasi, kasbiy tayyorgarligi masalalari mamlakatimizdagi demokratik huquqiy davlat qurilishi, fuqoralik jamiyatini shakllantirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda mustaqillik yillarida Oliy majlis tomonidan ekologiya bo'yicha 50 dan ortiq qonunlar va 300 dan ortiq direktiv hujjatlar qabul qilindi. Ushbu umumdavlat ahamiyatiga molik ekologik yo'nalishdagi hujjatlar mazmuni aholi orasida, talaba yoshlarimizga tizimli ta'lim tarbiya vositalari orqali tushintirilmoqda [5].

Buning yorqin tasdig'i sifatida O'zbekistonda "Ekologik harakat"ning vujudga kelganligi va ushbu jamoat tashkilotining bo'g'inlarining viloyatlar, tumanlarda tashkil etilganligidir. Shuningdek ekologik harakat vakillaridan 15 nafari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga saylanganligi mamlakatimizda ekologik vaziyatini yanada yaxshilashga va talaba yoshlarning ya'ni bo'lajak mutaxasislarning ekologik madaniyatini shakllantirishga berilayotgan etibordan dalolatdir. Ta'kidlash lozimki, oliy ma'lumotli mutaxasislarning ijtimoiy faolligi ekologik muommalarning hal bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi [6]. Maktabgacha ta'lim va maktab, professional va oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim tarbiya ishlarining takomillashtirilayotganligi natijasida talaba yoshlarga hozirgi davr ekologik vaziyatning muhim muommalari va ularning yechimiga doir masalalar malakali mutaxasislar tomonidan yoshlar ongiga singdirilayotganligi talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirishning muhim omilidir.

Shuningdek, mamlakat ijtimoiy iqtisodiy hayotini modernizatsiyalash sharoitida professional va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talaba yoshlarimiz ekologik vaziyat va atrof muhitni asrash, yoki tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalarining muhimligi bilan yuzma yuz uchrashmoqda. Ular tafakkuriga ekologik madaniyatning muhim xususiyatlari, mazmuni ilmiy



metodik, yangi pedagogik texnologiyalar va zamonaviy usullar bilan singdirilmoqda. Ushbu faoliyatga ilmiy xodimlar, mohir pedagoglar, jamoat tashkilotlarining shu jumladan yoshlar tashkilotlarining vakillari jalb qilingan. Natijada globollashuv davrida yashayotgan va mehnat qilayotgan yoshlar inson hayoti, faoliyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan tabiat va ijtimoiy muhitning o‘zaro aloqadorligini chuqur anglamoqda. Tadqiqotlar natijalari dalolat bermoqdaki, talabalar mintaqaviy va hududiy ekologik muommalarning kelib chiqishining obyektiv va subyektiv sabablarini tushunmoqdalar [7, 8].

Mamlakatimiz hududlarida tabiiy resurslardan unumli foydalanish masalalarining yechimida, atmosfera havosning tozaligini saqlash, mineral xom ashyo zahiralarimizning vatanimiz buguni va kelajagi uchun xizmat qilishida jonkuyarlik ishlarini amalga oshirishda talaba yoshlarning o‘rni muhimdir. Hozirgi davrda ekologik holatni vujudga keltiruvchi asosiy omillardan biri mavjud mineral xom ashyo resurslari, shu jumladan atmosfera havosi, gaz, neft, suv, yer resurslaridan tejamli foydalanishni tashkil etishdan iborat.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, O‘zbekistondagi ekologik islohotlar nafaqat atrof-muhitni yaxshilashga, balki yosh avlodni ekologik ongli, ijtimoiy mas’uliyatli shaxs sifatida kamol toptirishga xizmat qilmoqda. Bu esa ekologik islohotlar va o‘quvchi-yoshlar ekologik madaniyatini shakllantirish jarayonining o‘zaro uzviyligini va dolzarbligini yaqqol ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahimov Q. Ekologik bilimlar amaliyotida // Xalq ta’limi jurnali., 2001. 2-son. – 99-103 b.
2. Ziyomuhammadov B. Ekologiya va ma’naviyat. – T.: Mehnat, 1997. – 104 b.



3. Maxmudov R.Yu. Ekologiyadan ma'lumotnoma. – T.: Fan, 1997. – 39 b.
4. Zebo, T. X., & E'zoza, E. (2023). Oliy ta'limda talabalar bilan olib boriladigan o'quv-metodik va ma'naviy-ma'rifiy ishlarning o'ziga xos xususiyatlari. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(17), 489-496.
5. Murodov M., Hakimov N., Ergashev A. Qadriyatnoma. – T.: G'.G'ulom nashriyoti, 2001. – 544 b.
6. Rasulov M. Markaziy Osiyo tabiatshunoslik fanlari tarixi. – T.: O'qituvchi, 1993. – 73 b.
7. Тухтаева, З. Ш. (2018). Олий таълимда ихтисослик ва мутахассислик фанлар узвийлиги ва интеграциясини таъминлаш муаммолари. *Касб-хунар таълим*, 4, 21.
8. Тухтаева, З. Ш. (2012). Методика межпредметной преемственности в профессиональном образовании.